



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

QAYTA ISHLASH NATIJASIDA OLINGAN MAHSULOTLARNING “YETARLI DARAJADA QAYTA ISHLANGANLIK” MEZONLARI ASOSIDA ANIQLANISHINI TAKOMILLASHTIRISHGA

Lutpullayev Shukrullo Kudratullayevich
Bojxona instituti Bojxona nazorati
kafedra boshlig'i

Annotatsiya:

Mazkur tezisda qayta ishlash natijasida olingan mahsulotlarning “yetarli darajada qayta ishlanganlik” mezonlari asosida aniqlanishini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Xususan, tovarning kelib chiqish mamlakati aniqlanishida qo‘llaniladigan asosiy mezonlar, qayta ishlash operatsiyalarining huquqiy va iqtisodiy ahamiyati, xalqaro amaliyot hamda milliy qonunchilikdagi yondashuvlar o‘rganilgan. Shuningdek, bojxona amaliyotida uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tezisda qayta ishlash jarayonlarini baholashning aniq va shaffof mezonlarini joriy etish tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun qulaylik yaratishi va bojxona nazorati samaradorligini oshirishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: qayta ishlash, yetarli darajada qayta ishlanganlik, tovarning kelib chiqish mamlakati, bojxona nazorati, qayta ishlash mezonlari, tashqi iqtisodiy faoliyat, tarif preferensiyalari, qo‘shilgan qiymat ulushi, tovar pozitsiyasining o‘zgarishi, ishlab chiqarish operatsiyalari, bojxona ekspertizasi, xalqaro savdo.

Аннотация:

В данном тезисе проанализированы вопросы совершенствования определения продукции, полученной в результате переработки, на основе



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

критериев “достаточной переработки”. В частности, изучены основные критерии, применяемые при определении страны происхождения товара, правовое и экономическое значение операций по переработке, а также подходы международной практики и национального законодательства. Кроме того, разработаны предложения по устранению проблем, возникающих в таможенной практике. В тезисе обосновано, что внедрение чётких и прозрачных критериев оценки процессов переработки создаст удобства для участников внешнеэкономической деятельности и повысит эффективность таможенного контроля.

Ключевые слова: переработка, достаточная переработка, страна происхождения товара, таможенный контроль, критерии переработки, внешнеэкономическая деятельность, тарифные преференции, доля добавленной стоимости, изменение товарной позиции, производственные операции, таможенная экспертиза, международная торговля.

Abstract:

This thesis analyzes the issues of improving the determination of products obtained as a result of processing based on the criteria of “sufficient processing.” In particular, the main criteria used in determining the country of origin of goods, the legal and economic significance of processing operations, as well as approaches in international practice and national legislation have been studied. In addition, proposals have been developed to eliminate problems arising in customs practice. The thesis substantiates that the introduction of clear and transparent criteria for evaluating processing operations will create favorable conditions for participants in foreign economic activity and increase the efficiency of customs control.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Keywords: processing, sufficient processing, country of origin of goods, customs control, processing criteria, foreign economic activity, tariff preferences, share of value added, change in tariff classification, manufacturing operations, customs expertise, international trade.

Kirish

Hozirgi global iqtisodiy munosabatlar sharoitida tovarlarning kelib chiqish mamlakatini aniqlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, tashqi iqtisodiy faoliyatda tarif preferensiyalari, bojxona to'lovlari va notarif cheklovlarni qo'llashda "yetarli darajada qayta ishlanganlik" mezonini asosiy huquqiy vositalardan biri hisoblanadi.

"Yetarli darajada qayta ishlanganlik" mezonini aniqlashda qo'llaniladigan asosiy huquqiy vositalar quyidagilardan iborat:

Tovar pozitsiyasining o'zgarishi mezonini

Mahsulot qayta ishlash natijasida Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) kodi bo'yicha boshqa tovar pozitsiyasiga o'tsa, u yetarli darajada qayta ishlangan deb hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat mezonini (advalor ulush)

Mahsulot tarkibida mahalliy ishlab chiqarish yoki qayta ishlash hissasi belgilangan foizdan yuqori bo'lishi talab etiladi.

Muayyan texnologik operatsiyalarni bajarish mezonini

Qonunchilikda belgilangan muayyan ishlab chiqarish yoki texnologik jarayonlar amalga oshirilganda mahsulot yetarli darajada qayta ishlangan deb e'tirof etiladi.

Yetarli bo'lmagan qayta ishlash operatsiyalari ro'yxati

Oddiy qadoqlash, saralash, markirovka qilish, yuvish yoki yig'ish kabi sodda operatsiyalar tovar kelib chiqishini o'zgartirish uchun asos bo'lmaydi.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Kumulyatsiya tamoyili

Ayrim xalqaro kelishuvlarda ishtirokchi davlatlarda amalga oshirilgan qayta ishlash jarayonlari birgalikda hisobga olinadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazib berish qoidasi

Tovar preferensiya olishi uchun u belgilangan davlatdan bevosita yetkazib berilishi lozim.

Kelib chiqish sertifikatlari

Tovarning kelib chiqishini tasdiqlovchi maxsus hujjatlar (masalan, Certificate of Origin, Form A, EUR.1) huquqiy asos sifatida qo‘llaniladi.

Xalqaro shartnomalar va milliy qonunchilik normalari

Jahon savdo tashkiloti qoidalari, Kioto konvensiyasi, erkin savdo bitimlari hamda milliy bojxona qonunchiligi mazkur mezonlarni huquqiy jihatdan tartibga soladi. Amalda tovar bir nechta davlatlarda ishlab chiqarish bosqichlaridan o‘tishi mumkin. Bunday holatda mahsulotning qaysi davlatga mansubligini belgilashda qayta ishlashning yetarli darajasi aniqlanadi. Xalqaro amaliyotda ushbu mezon asosan uch shaklda qo‘llaniladi: tovar pozitsiyasining o‘zgarishi, qo‘shilgan qiymat ulushi hamda muayyan texnologik operatsiyalarni bajarish orqali.

Tovar ishlab chiqarish zanjiri tabiiy resurslarni olish bilan boshlanadi. Masalan, paxta yetishtirish, ruda qazib olish yoki neft chiqarish. Bu bosqich odatda “asosiy kelib chiqish” nuqtasi hisoblanadi.

Xom ashyo dastlabki texnik ishlovdan o‘tkaziladi. Masalan, paxta tolaga aylantiriladi, ruda konsentratga aylantiriladi yoki yog‘och pillasi tayyorlanadi. Bu bosqich ko‘pincha boshqa davlatda amalga oshirilishi mumkin.

Mahsulot yarim tayyor holatdan tayyor mahsulotga aylantiriladi. Masalan, to‘qimachilik mahsuloti, avtomobil detallari yoki kimyo mahsulotlari ishlab chiqariladi. Bu bosqichda tovarning asosiy xususiyati shakllanadi.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Turli komponentlar birlashtirilib tayyor mahsulot hosil qilinadi. Masalan, smartfon, avtomobil yoki maishiy texnika yig'ish. Bu bosqich ko'pincha turli davlatlarda ishlab chiqarilgan qismlar asosida amalga oshiriladi.

Tayyor mahsulot iste'molga tayyor holatga keltiriladi. Qadoqlash, etiketkalash va standartlashtirish amalga oshiriladi. Ammo bu bosqich odatda tovar kelib chiqishini o'zgartiruvchi asosiy qayta ishlash sifatida tan olinmaydi.

Mahsulot turli davlatlar orqali tashiladi, saqlanadi va eksport uchun rasmiylashtiriladi. Bu bosqichda bojxona nazorati va kelib chiqish sertifikatlari muhim ahamiyatga ega.

Tovarning bir necha davlatlarda ishlab chiqarilishi uning kelib chiqishini aniqlashni murakkablashtiradi. Shu sababli "yetarli darajada qayta ishlanganlik" mezonlari har bir bosqichdagi qo'shilgan qiymat va texnologik o'zgarishlar asosida baholanadi.

Tovar pozitsiyasining o'zgarishi mezoniga ko'ra, mahsulot qayta ishlash natijasida TIF TN kodi bo'yicha yangi tovar pozitsiyasiga o'tsa, u yetarli darajada qayta ishlangan deb hisoblanadi. Qo'shilgan qiymat mezonida esa mahsulot tannarxida mahalliy ishlab chiqarish ulushining belgilangan foizdan yuqori bo'lishi talab etiladi. Shu bilan birga, ayrim texnologik operatsiyalar oddiy yig'ish, saralash yoki qadoqlash kabi jarayonlar bilan cheklansa, ular yetarli qayta ishlash sifatida baholanmaydi.

Bojxona amaliyotida mazkur mezonlarni qo'llashda ayrim muammolar kuzatilmoqda. Xususan, qayta ishlash operatsiyalarini baholashda yagona metodikaning mavjud emasligi, hujjatlarning turlicha talqin qilinishi va raqamli monitoring mexanizmlarining yetarli emasligi amaliyotda bahsli holatlarni keltirib chiqarmoqda.

Shu munosabat bilan quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

qayta ishlash mezonlarini aniq belgilaydigan yagona elektron platformani joriy etish;

tovarning kelib chiqishini aniqlashda raqamli sertifikatlash tizimini kengaytirish; bojxona organlari uchun yagona uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqish; xalqaro standartlar va JST talablari asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish.

Rivojlangan davlatlar amaliyotida tovarlarning "yetarli darajada qayta ishlanganligi"ni aniqlashda aniq huquqiy mezonlar va raqamli nazorat mexanizmlari keng qo'llaniladi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida tovarning kelib chiqishini belgilashda asosan tovar pozitsiyasining o'zgarishi hamda qo'shilgan qiymat ulushi mezonlaridan foydalaniladi. Ayniqsa, "Pan-Euro-Med" tizimi doirasida ishlab chiqilgan qoidalar tashqi savdo ishtirokchilari uchun yagona va shaffof tartibni ta'minlaydi. Bunda mahsulotning ishlab chiqarish bosqichlari elektron sertifikatlar orqali kuzatib boriladi.

AQSH amaliyotida esa "substantial transformation" tamoyili qo'llanilib, mahsulot qayta ishlash jarayonida yangi nom, xususiyat yoki funksiyaga ega bo'lgan taqdirda kelib chiqish mamlakati o'zgargan deb hisoblanadi. Bu yondashuv sud amaliyoti orqali ham shakllantirilgan bo'lib, bojxona organlari uchun muhim huquqiy asos vazifasini bajaradi.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

1-jadval Ko'p bosqichli ishlab chiqarish jarayoni

№	Ishlab chiqarish bosqichi	Mazmuni	Huquqiy ahamiyati (kelib chiqish nuqtai)
1	Xom ashyo qazib olish / yetishtirish	Tabiiy resurslarni olish (paxta, ruda, neft)	Dastlabki kelib chiqish manbai
2	Birlamchi qayta ishlash	Xom ashyoni dastlabki ishlovdan o'tkazish	Qisman qiymat qo'shiladi
3	Chuqur sanoat qayta ishlash	Yarim tayyor mahsulotdan tayyor mahsulotga o'tish	Kelib chiqishni o'zgartirishi mumkin bo'lgan asosiy bosqich
4	Komplektlash va yig'ish	Turli qismlardan tayyor mahsulot yig'ish	Ko'p holatda yetarli qayta ishlash mezonini qo'llaniladi
5	Qadoqlash va markalash	Tayyor mahsulotni o'rash, yorliqlash	Odatda yetarli qayta ishlash hisoblanmaydi
6	Logistika va eksport	Tashish va bojxona rasmiylashtiruvini	Kelib chiqishni o'zgartirmaydi

Xitoy tajribasida eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar bo'yicha raqamli monitoring va ishlab chiqarish zanjirini elektron kuzatish tizimi joriy etilgan. Bu esa qayta ishlash darajasini tezkor va aniq baholash imkonini beradi.

Janubiy Koreya va Yaponiyada mahsulotning kelib chiqishini aniqlashda texnologik operatsiyalarning murakkablik darajasiga alohida e'tibor qaratiladi. Oddiy yig'ish, qadoqlash yoki saralash ishlari yetarli qayta ishlash sifatida tan olinmaydi.

Mazkur xorijiy tajribalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, qayta ishlash mezonlarini aniq belgilash, raqamli nazorat tizimlarini joriy etish va xalqaro standartlarga mos huquqiy bazani shakllantirish bojxona amaliyoti samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Xulosa qilib aytganda, “yetarli darajada qayta ishlanganlik” mezonlarini aniq va shaffof qo‘llash tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun qulay huquqiy muhit yaratadi hamda bojxona nazorati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jahon savdo tashkiloti (WTO). Agreement on Rules of Origin. Geneva, 1994.
2. Kioto konvensiyasi. Kyoto Convention (Revised Kyoto Convention). World Customs Organization (WCO), Brussels, 1999.
3. World Customs Organization (WCO). Non-Preferential Rules of Origin – Technical Guidance. Brussels, latest edition.
4. Yevropa Ittifoqi. Union Customs Code (UCC). Regulation (EU) No 952/2013.
5. Yevropa Komissiyasi. Rules of Origin in Preferential Trade Agreements. Brussels, official guidelines.
6. United States Customs and Border Protection (CBP). Country of Origin Marking Requirements & Substantial Transformation Doctrine. Washington, D.C.
7. UNCTAD. Handbook on Rules of Origin. United Nations Conference on Trade and Development, Geneva.
8. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi. Toshkent, amaldagi tahrir.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va bojxona qoidalari to‘plami. Toshkent.
10. Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN). Rasmiy nashr.
11. Xalqaro bojxona amaliyoti va statistika materiallari. WCO axborot byulletenlari.